HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

“GULSHANI DAVLAT” ASARIDAGI AYRIM SIFATLAR TAHLILI

Gavharbonu Otaboyeva
Urganch davlat universiteti magistranti
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.23283858

Annotatsiya: Mazkur maqolada Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning tarixiy asarlari, xususan, “Gulshani davlat” asaridagi ba’zi shaxsning xususiyatlarini bildiruvchi sifatlar va ularning ma’nodoshligi masalasi, asarda qo‘llanilgan she’riy san’atlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ogahiy, “Devon”, sinonim, “Gulshani davlat”, metafora, timsol, jonlantirish, talmeh, tavze’, o‘xshatish.

Kirish

XIX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, shoir, muarrix, tarjimon Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy o‘z zamonasining yetuk va ilg‘or ijodkorlaridandir. Uning “Devon”i, tarjima asarlari, ayniqsa, tarixiy asarlari diqqatga sazovordir.

Shoir ijodini keng targ‘ib qilish, izdoshlarini kashf etish va ularning iste’dodlarini namoyon qilishlariga shart-sharoit yaratib berish maqsadida 2019-yilning mart oyida O‘zbekistin Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shoir tavalludining 210 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi 238-sonli qarori qabul qilindi.[1] Ushbu qaror doirasida qator tadbirlar amalga oshirildi. Bu kabi ishlar ogahiyshunoslik yo‘nalishidagi ilmiy ishlarning ham ko‘payishiga zamin yaratdi. Shu paytga qadar Ogahiyning birorta tarixiy asari to‘laligicha va mukammal tarzda nashr etilmagan. Demak, uning asarlarini o‘rganish va tadqiq etish, nafaqat adabiyotshunoslik, balki tili jihatidan tilshunoslikning ham dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Shu asosda ushbu maqolada ham Ogahiyning tarixiy asarlari, jumladan, “Gulshani davlat” asari tili va undagi sifatlar sinonimiyasi haqida qisqacha to‘xtalamiz.

Asosiy qism

Ogahiyning tarixiy asarlari bo‘yicha anchagina ilmiy ishlar qilingan bo‘lib, ulardan V.V.Bartold, P.P.Ivanov, Y.G‘ulomov, G‘.Karimov, S.Dolimov, M.Yo‘ldoshev, T.Ne’matov, Q.Munirov, F.G‘anixo‘jayev va boshqalarning ishlari diqqatga sazovordir. [2]

Bilamizki, Ogahiy Xorazm tarixiga oid 5 ta tarixiy asar yaratgan. Bular orasida biz tahliliga qo‘l urmoqchi bo‘lgan “Gulshani davlat” asari davr ma’naviy hayotini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Gulshani davlat” tarixiy asar bo‘libgina qolmay, badiiy asar hamdir. Chunki asarning 1/3 qismi turli she’riy parchalardan iboratdir. Asar 39 ta bobdan iborat bo‘lib, boblar fasllarga bo‘lingan. Ogahiy ushbu asarini Sayyid Muhammad Bahodirxonning taklifi bilan yaratgan, va shu asnoda asar to‘laligicha shoh hayoti tavsifiga bag‘ishlanadi. Asar tiliga to‘xtaladigan bo‘lsak, shoir dostonda turli til birliklari: shevaga xos so‘zlar, sinonim, antonimlar, ko‘p ma’noli so‘zlar, iboralar; turli tasvir vositalari: o‘xshatish, metafora, jonlantirish, sifatlash, mubolag‘a kabilardan unumli foydalangan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ushbu ishda “Gulshani davlat” asaridagi ayrim sifatlar sinonimiyasini ko‘rib chiqamiz.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

1) "…ul amr vositasi bila ahli olam orasida nihoyatsiz **mubtahij** va **munbasit** erdim…"[2;3]
Vale bog'i erdi base **dilkusho**,
Havosi dami Isodek jonfizo. [2;72]

Shoh har kimga aylasa ehson,
Bo'lubon **sarafroz** ahli jahon. [2;97]
"Sarafroz" so'zi fors tilidan kirib kelgan bo'lib, qo'llanilishiga ko'ra, **"yuksak maqomli", "ulug'vor", "baland martabali", "obro'-e'tiborli"** kabi ma'nolarni anglatadi. "…bo'libon *sarafroz* ahli jahon" – iborasida jamiyatda yuqori maqomga, ijtimoiy hurmat va obro'ga ega kishilarni tasvirlash uchun ishlatilgan. Sarafroz so'zi bilan semantik jihatdan yaqin, ya'ni sinonimik munosabatda bo'lgan boshqa sifatlar ham ushbu asarda ishlatilgan. Ularga **"dilkusho"**, **"munbasit"** va **"mubtahij"** kabi so'zlar kiradi: **Dilkusho** – (forscha: *dil* – qalb, *kusho* – ochuvchi): "dilni ochuvchi", "quvonch bag'ishlovchi", "shodlik uyg'otuvchi" ma'nolarida ishlatiladi. **Munbasit** – (arabcha : *b-s-t* ildizidan): "xursand", "ochiq chehrali", "shod-u xurram" degan ma'nolarni anglatadi. "Sarafroz", "dilkusho", "munbasit" va "mubtahij" so'zlari semantik jihatdan quvonch, shodlik, yuksaklik va mamnunlik holatini ifodalovchi sinonimik qatorda tahlil qilinadi.

2) "…ul amr vositasi bila ahli olam orasida **nihoyatsiz** mubtahij va masrur erdim…"[2;6]
"Salavoti **beshumor** va salomi biloihtikor hazrati xayru-l-anomning ashobi kibori…"[2;5]
"…sha'ni **bemuntaho** va shukri loyuhso vazoyifekim…" [2;3] Nihoyatsiz, beshumor, bemuntaho – "sonsiz, sanoqsiz, nihoyasiz, oxiri yo'q" ma'nolarida.

3) "Jalolat burjida **tobanda** axtar,
Adolat durjida **raxshanda** gavhar". [2;6] Tobanda, raxshanda –"tovlanuvchi, porlovchi, yaltiroq" ma'nolarida.

4) Haq beribon ne esa komi aning,
Din eli lutfidin o'lub **komyob**. [2;2] …Ajabo, jahon shohining nuri diyidasini makon va hamon Sohibi **baxtli** yilning muborak kunida ato qildi... [2;103] *Komyob* so'zi forsiy qatlamga mansub bo'lib, forscha *kam* (oz) va *yob* (topmoq) so'zlaridan tarkib topgan. Leksik-semantik jihatdan *kam uchraydigan*, *noyob*, *omadli*, *baxtiyor*, *davlatli* ma'nolarini anglatadi va baxtli leksemasi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi.

Qadarqudrat, qazoquvvat shahanshoh,
Qamarroy-u quyoshfikrat, falakjoh.
Hasabda mazhari xulqi payambar,
Aboan jad nasabda shohu sarvar.
Sadoqatda kelib Siddiq monand,
Adolatda Umar yanglig' hunarmand.
Hayo-u hilm aro Usmon nishona,
Shijoatda Ali yanglig' yagona.
Sahovatda kelib Hotam gadosi,
Bo'lub rif'atda gardun xoki posi.
Sulaymonhashmatu bahromsavlat,
Iskandarshavkatu rustamshijoat.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Erur dargohining gardu g‘ubori,
Salotin boisi toj iftixori.
Jahonbonu jahongiru jahonjo‘y,
Javonbaxtu javonmardu javonjo‘y. [2;6]

Ogahiy ushbu satrlar orqali shaxs, xususan, hukmdor sifatlarini ifodalash uchun bir necha vositalardan foydalangan. Mazkur parchadagi shaxs xususiyatlarini ko‘rsatuvchi sifatlarni bir necha guruhga bo‘lishimiz mumkin. Shaxsning hukmdor sifatidagi xususiyatlari : **qadarqudrat, qazoquvvat, qamarroy, quyoshfikrat, falakjoh, Usmon nishona, sulaymonhashmat, iskandarshavkat** kabilar; hukmdorning harbiy salohiyatini vasf qiluvchi sifatlar: **bahromsavlat, rustamshijoat**; shaxsiy sifatlar: jahonbon, jahongir, jahonjo‘y, javonbaxt, javonro‘y, javonmard kabilar kiradi.

Ko‘rib turganimizdek, Ogahiy ushbu parchada hukmdor ya’ni xonning shaxsiy sifatlarini aks ettirish uchun bir necha vositalardan foydalanadi. Birinchidan, **tanosub** orqali bir mavzu guruhiga mansub bo‘lgan sifatlardan yangi so‘zlar yasaydi. Astronomik terminlar hisoblangan *qamar – oy, quyosh, falak* so‘zlariya ***roy*** qo‘shimchasi, ***fikrat*** hamda ***joh*** affiksoitlarini qo'shish orqali *quyoshkifrat, falakjoh, qamarroy* sifatlarini yasaydi. Shu bilan birgalikda, ma’rifiy-falsafiy terminlar hisoblangan *qadar, qazo* so‘zlaridan kompozitsiya yo‘li bilan *qadarqudrat, qazoquvvat* sifatlarini hosil qiladi. Ikkinchidan esa sifatlarni hosil qilishda talmeh vositasini qo‘llaydi. Bunga Halifayi roshidinlar ichida o‘zining hayosi bilan alohida e'tirof etilgan Usmon (r.a) nomiga **nishona** so‘zini qo‘shish vositasida *Usmonnishona* yani "**o‘ta hayoli**" sifatini yasaydi. Shu jumladan, Sulaymon, Bahrom, Rustam, Iskandar nomlari orqali *Sulaymonhashmat, Iskandarshavkat, Bahromsavlat, Rustamshijoat* sifatlari hosil bo‘ladi. Yana bir vosita sifatida, Ogahiy tovushdoshlik yani tavze’dan unumli foydalanadi. Xususan, *jahon* so‘ziga topuvchi ma’nosidagi **jo‘y** qo‘shimchasini qo‘shishi hamda *jahonbon, jahonjo‘y, jahongir* so‘zlarini ketma-ket keltirish orqali ham tovushdoshlik ham ishtiqoq san’atlaridan foydalangan. Shuni ham aytish joizki, *javonbaxt, javonmard, javonro‘y* so‘zlari orqali ham ishtiqoq san’ati qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. Demak, ushbu kichik bir parchaning o‘zi Ogahiy shaxsni tavsiflovchi sifatlar borasida eski o‘zbek tili imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi sifatlar ham ixtiro qilganligi va shu bilan o‘zbek tilining boyishiga hissa qo‘shganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa

“Gulshani davlat” – Xorazm xonligi tarixini yoritgani bilan muhim tarixiy manba sifatida qadrlanadi. Chunki asar orqali biz XIX asr Xorazm xonligida, qolaversa butun Turkistonda joriy bo‘lgan o‘zbek adabiy tili haqida boy tasavvur hosil qilamiz. Shuningdek, asarda tarixiy voqealar adabiy-badiiy usulda hikoya qilinadi: voqea-hodisalar tasvirida manzaralilik, timsol shu darajada ustunki, asarni badiiy qissa yoki hikoya o‘qigandek qabul qilish mumkin. Bu unsurlar asarning badiiy qimmatini oshirish bilan birga, aynan timsollar vositasida asarda qo‘llangan sifat so‘z turkumiga oid birliklarni ham boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy tavalludining 210 yilligini keng nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to‘g‘risida. http://lex.uz/docs/4249861
2. Ogahiy. Asarlar. VI jild. Nashrga tayyorlovchi: A.O‘rozboyev. T., 2019.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

3. Ogahiy. Asarlar. VI jild. Nashrga tayyorlovchilar: G‘.Karimov, S Dolimov. T., 1972-1980. B.14.
4. Navoiy A. Xamsa. Tahrirchi: M. Juraev. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. – 2 jildlik.